

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES

2023 Vol. 3 (2)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Ulug'bek Yo'ldoshev, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychiyeva, Ra'noxon Xudjayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Gulnoraxon Niyazova, Ma'suma Obidjonova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Qiyosiy adabiyotshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O'zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz
Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik xususiyatlari haqida so'z boradi. Shu bilan birga adib ijodining individuall xususiyatlari va yozuvsi biografiyasiga oid jihatlar tahlalga tortiladi. Yozuvchi hikoyalarining obrazlari tasnif etilib, "Mung" va "Yozning birinchi kuni" hikoyalari poetikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hikoya, individuallik, obraz, xarakter, tugun.

Mustaqillik yillarida Ahmad A'zam, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Xayriddin Sulton, Olim Otaxon, Nazar Eshonqul, Shodiqul Hamro, Luqmon Bo'rixon, To'xtamurod Rustam, Ulug'bek Hamdam, Bahodir Abdurazzoq singari adiblar ijodida o'ziga xos shakl va mazmun, obraz va uslubning, poetik individuallikning yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi adabiy jarayonda Normurod Norqobilov ijodi obrazlar olamining turfa xilligi bilan ajralib turadi. Adib inson va hayvonot, nabotot dunyosini o'ziga xos yo'sinda tasvirlaydi. Adib ijodining individualligi ham shunda ko'rinadi.

Adbiyotshunos Sh.Davronova uslub va individuallik haqida "bir-biriga nihoyatda yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ayni bir xil hidisa emas. Individuallik uslubga nisbatan kengroq, ya'ni u uslubni ham o'z qamroviga kiritadi. Individuallik yozuvchi ijodining butun bir tizimi bo'lib, uning shakllanish, rivojlanish, ba'zan esa inqirozigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Uslub esa individuallikni yuzaga chiqaruvchi omillardandir.

Xullas, adabiy jarayon va ijodiy individuallik borasidagi ishlarning ba'zilarida uslub va individuallik tushunchalari o'rtasidagi farq nazardan chetda qoldirilib fikr yuritilgan bo'lsa, yana ayrimlarida bu boradagi qarashlar, ko'pincha, sotsialistik realizm metodi talablari asosida tadqiq etilgan [Dovurova, 2004;5]", – deb yozadi. Adbiyotshunos Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Nodir Normatovlarning nasrining individual xususiyatlarini o'rganib, hikoyalariga ham e'tibor qaratadi. Uning fikricha, "Erkin A'zam ijodi poetik tasvirdagi o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi.

¹ Xayrullayev Azamat Xoliqovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: azamatxayrulla@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-0315-1790

Iqtibos uchun: Xayrullayev, A. 2023. "Normurod Norqobilov hikoyalarining poetik o'ziga xosligi". O'zbekiston: til va madaniyat, 3 (2): 13-21.

Yozuvchi ijodining poetik individualligi, eng avvalo, uning asarlarida tez-tez va o'rnida ko'zga tashlanadigan yengil yumor bilan xarakterlanadi¹.

Hind adabiyotshunosi "Sen ijodkor bo'lmoqni istasang, barcha shartliliklardan voz kechishing kerak; aks holda sening ijodining ijod emas, atigi nusxa ko'chirish, nusxa ko'chirish bo'lganda ham, qora qog'oz qo'yib nusxa ko'chirish bo'ladi. Sen faqat individual bo'la olsanggina ijodkor bo'lasan; sen olomon psixologiyasining bir qismiligicha qolsang, ijodkor bo'la olmaysan.

Ijodkor birovning izidan bora olmaydi. Ijodkor hayot chakalakzorini yorib o'tib, o'z yo'lini topishi lozim.

Ijod bu – individual erkinlik nash'asidir [Dovurova, 2004;134].” – deb yozadi Osha "Ijod ichki kuchlarni ozod qilish" maqolasida.

Obrazlar xilma-xilligi haqida so'z borganda esa N.Norqobilovning ijodkor sifatida shakllanishiga e'tibor qaratish lozim. Yozuvchi ijodining ilk namunalarini ertaklar yozishdan boshlangani haqida shunday yozadi. "...kaminaning yozuvchilikka havas va ishtiyoqi bolalikda ertaklar tufayli yuzaga kelgan desam sira yanglishmayman", – deya yozadi adib. "...Keyin-keyin esa tengqurlarim orasida o'zim ertak aytishni odat qildim. Ular qolib, katta yoshdagi bolalar og'zimga tikilganini ko'rib hayron qolardim va bilganlarim tugab qolgudek bo'lsa, o'zim ertak to'qiy boshlardim. To'qigan ertaklarimda yovuzlik va yorug'likdan tashqari, hayvonot dunyosiga nisbatan bo'lgan munosabatimu muhabbatim aks etardi. So'ng menda ularni qog'ozga tushirish fikri paydo bo'ldi...

Buning qarangki, taqdir jonivorlarga nisbatan munosabatim o'zgachiligini sezganday, necha va necha bor meni bo'rilarga duch qildi. Itlar haqida gapirmasam ham bo'ladi. Ularning ovozdanoq nima demoqchi ekanligini sezadigan bo'ldim. Chunki, ular menga shunchaki it emas, tabiiy uyg'unlikning jonli bir bo'lagi edi. Sadoqatni o'shalarda ko'rdim, mardlikni bo'rilarida uchratdim. Qishning qirchillama kunlaridan birida qirning tor o'zanida ularning to'rttasiga to'satdan ro'baro' kelgan va azbaroyi qo'rqqanidan yelkasidagi miltiqni olishga ham qurbi yetmagan yigitcha men edim...!²".

Darhaqiqat, o'z xalqining ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-falsafiy ummonidan suv ichmagan hech bir ijodkor qanchalik urinmasin, qanchalik katta adabiyotga da'vo qilmasin, milliy negizdan uzilib qolar ekan. U adabiyot dunyosida hech qanday o'ringa ega bo'la olmaydi. N. Norqobilov bolalikdan xalq og'zaki ijodiga ko'ngil qo'yib katta bo'lgan, uning Chorshanbi baxshi Rahmatillaev, Abdunazar baxshi Poyonovlar haqida yaratgan ocherklari ham buning isboti sanaladi. Ehtimolki, ertakka

¹ Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги. Ф.ф.ном. дисс. Тошкент-2004. Б.134.

² Норқобилов Н. "Ёшлик" журналі. 2010 йил 7-сон.

shaydolikdandir, adibning butun mahorati sezilib turgan, badiiyati yuksak hikoyalaridan birida go'yo ertaklar qaridan chiqib keladigan bir obraz borki, u xuddi ertakdagidek saxovatli, oriyatli, mard kishi obrazidir. Bu "*Chetdagi odam*" hikoyasining qahramoni *Muso fermer* obrazi. U asarda ertaklardagi kabi do'stlikka sodiq, yetimlarga muruvvatli inson sifatida gavdalanadi. U vaqti-vaqti bilan do'stining yetim farzandlariga shirinliklar, ro'zg'ori uchun kerakli hamma narsani hovlining pastidagi jarlik ichiga qo'yib ketadi. Ayni shu Muso fermer obrazning yaralishida adib bolaligidan oshno bo'lgan ertaklarning sezilarli ta'siri ko'rinadi. Demoqchimizki, adib chindan xalq ijodiyotini yaxshi biladi. Uning asarlari qatida xalq hikmatlariyu o'g'itlari yotadiki, adib ijodini milliy adabiyot bilan bir butun ko'ra oladigan inson bu gaplarning haqiqat ekanligini anglay oladi.

Yozuvchi va uning asarlarini uyg'un holda tadqiq etadigan biografik "metod ijodkor biografiyasidan faqat axborot sifatida foydalanmaydi, balki bunda ijodkor biografiyasi bir butun tizim o'laroq ijod mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu shunday tizimki, ichki sturukturasi jihatidan ko'plab mukkammal tizimchalarni o'zida mujassam etadi. Shuningdek, ijodkor hayoti va faoliyatini atroficha qamrab olishga qaratiladi"¹.

Yozuvchi N.Norqobilov asarlarining dunyoga kelishida biografik omillarning o'rni katta. Bu haqda adibning o'zi ko'p o'rinlarda yozgan. Shuningdek, yozuvchi uzoq yillar O'zbekiston teleradiokompaniyasida jurnalist sifatida faoliyat olib borgan. Uning muallifligidagi "Ikki daryo oralig'i" ko'rsatuvi nafaqat o'lkamizning tabiati, hayvonot va nabotat olami, balki qadimiy tarixga ega qadamjolari haqida edi. Adibning "Amir Temur izidan" (2016), "Tamaddun izlari" (2019) nomli kitoblari ana shunday yurtimiz bo'ylab olib borilgan ekspeditsiyalari haqida ocherklardan iborat. Ushbu ocherklarda yozuvchi Amir Temur g'orlaridan tortib, Nurota tog'lari va boshqa qadim tarixga ega joylar haqida hikoya qiladi. Yurtimizning uzoq o'tmishidan so'z ochadigan, sirli tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqish uning asarlarida ham o'z aksini ko'rsatishi tabiiy edi. Bunga misol qilib adibning "*Yakkasuv*", "*Qorovultepa*" kabi hikoyalarini olish mumkin. Yozuvchi ushbu asarlarida qahramonlarining xarakter xususiyatlarini ochish, qalb kechinmalarini tasvirlash bilan parallel ravishda ularda qadim tarixga, ajdodlarga muhabbatning paydo bo'lishi, yurtning o'tmishi, sirli go'shalari haqida mahorat bilan yozadi. "*Yakkasuv*" hikoyasi qahramoni *Mirza*, jo'ralari va qo'shni qishloq yigitlari o'rtasida talash bo'layotgan Yakkasuv shunchaki bir dam oladigan joy emas, aslida tarixdan xabar beradigan ziyoratgoh ekanligini tog'asidan eshitadi. Hikoyada biz sodda, jaydari yigitchaning o'zi kutmagan holda anglab yetgan o'tmishning sirli sinoatlari haqidagi ruhiy kechinmalari tasvirini ko'ramiz.

¹ Жўрақулов У. Худудсиз жила. – Т.: "Фан", 2006. – Б.14.

Xullas, yozuvchining xarakteri, hayoti, tug'ma iste'dodi individualligini ko'rsatuvchi belgi. Bunga N.Norqobilov ijodi misol bo'la oladi.

Adib asarlarining qahramonlari atrofdagi odamlarni, jamiyatni kuzatadi. Bu kuzatish orqali muayyan muhit yoki jamiyatning, umuman olganda yozuvchi nuqtai nazarida, insoniyatning turli xatti-harakati, qilmishi, illatlari, razilliklari, ahloqiy-ma'naviy qiyofasi ochib beriladi.

Albatta, yozuvchi bularni o'ziga xos obrazlar dunyosi orqali ifoda etadi. Ayni obrazlarning xilma-xilligi yozuvchi nasrining o'ziga xos tomonidir. Adib yaratgan hikoyalarning obrazlar ko'lamini insondan tortib hayvonot va hatto nabotot dunyosini ham qamrab oladi. Yozuvchi xoh jonivor bo'lsin, xoh daraxt har bir qahramoni, personaji nigohi orqali insonni kuzatadi va taftish qiladi.

Yozuvchi hikoyalarining obrazlar olami shartli tasnif qilinsa, birinchidan, hikoya qahramoni sifatida inson va uning nigohi markazda turishini ko'ramiz. Bunday obrazlarga: *bola va o'smir yigitchalar, chollar, ijodkorlar, ayollar* obrazlarini (*yigirmadan ortiq hikoyalar*) aytish mumkin.

Ikkinchidan, qahramon sifatida *it, bo'ri, dala sichqoni, yumronqoziq* obrazi olinadi va hayot voqeligi ular nigohi oraqali kuzatiladi. Masalan: it ("Qizcha"), dala sichqoni (Do'ngkala), yumronqoziq (Yozning birinchi kuni),

Uchinchi guruhga esa *gul, buloq, keksa tut, boboterakni* olamiz: gul ("Yetim qolgan gullar"); buloq ("Buloq"); daraxt ("Keksa tut", "Yong'in") kabi obrazlar.

Bolalar obrazini tasvirlashda adib ijodining individual jihatlari yorqin ko'zga tashlanadi. Adib hikoyalarida bolalar obrazini tasvirlashning bir qancha o'ziga xosliklari bor. Bola obrazini yaratishda adib ba'zi hikoyalarida bolalarning yetimligiga urg'u bersa, boshqa hikoyalarida ota-ona tomonidan farzand sifatida unutilgan bolalarni tasvirlaydi. *"Erkak", "Chorraha", "Xesh", "Yangi ertak"* hikoyalarida biz aytgan jihat, ya'ni yetim bolalarning o'ziga xos tasvirini ko'ramiz. *"Zangori ko'l", "Kitob", "Sut sotuvchi bola", "Qizcha"* hikoyalarida esa bolaligini unutgan bolalar tasvirlanib, ularga qarshi ota-onalar obrazi qo'yiladi. Misol sifatida *"Kitob"* hikoyasini ko'ramiz.

*"Bola aniq his qildi, hozir uning sevimli Tom Soyri ham, ulkan havo shari ham, Sahroi Kabir... umuman, o'zini butkul sehrlab qo'ygan g'aroyib olam otasining qo'lida burdalanib, tandirga tushadi."*¹.

"Judolik quvonchi", "Mung" va boshqa hikoyalarida adib chol obrazini mohirona tasvirlaydi. Bu kabi obrazlarni yozuvchi qanday yaratadi, qaysi jihatlariga e'tibor qaratadi? Kishilar nazaridan chetda qolgan, unutilgan chollarning ichki dunyosi, ularning qayg'u alamlari bilan birga adib hikoyalarida o'z aksini topadi.

¹ Норқобилов Н. Унутилган кўшиқ "Ёш гвардия" 1990 Б. 53.

“...Yozuvchi itlar va bo‘rilar munosabati orqali odamlarni saralaydi, ayrim masalalarda insoniyatni ulardan o‘rnak olishga undaydi. “Dashtu dalalarda” romanining qahramoni Eshqul polvon, ehtimol, “yashashni, temtinishni odamlardan emas, jonivorlardan o‘rganish kerak deganda, mana shu holatlarni ko‘zda tutgandir”. Shu jihatdan Nodir cholning vafodor iti Oqquyruq obrazi ibratlidir. Bir xum tilla xazinaga ega bo‘lsa-da, uni na o‘ziga, na bolalariga ravo ko‘rmay yer ostiga ko‘mib qo‘ygan Nodir chol mehr-oqibatni o‘g‘il-qizlaridan, yor-do‘stlaridan, qarindosh-urug‘idan emas, aynan ana shu ko‘rimsizgina iti — til-zabonsiz Oqquyruqdan ko‘rdi. Chol qo‘y galasini haydab qirga otlana ekan, Oqquyruq ularning yo‘lini to‘sis, “ochiq eshikdan tashqariga intilayotgan suruvning harakatiga oshkora monelik” qiladi. U xo‘jayining o‘limini oldindan sezgandi. Shuning uchun kun bo‘yi “Oqquyruq mung va xavotir to‘la nigohini undan uzmay, tevaragida aylanadi”, dumini bezovta likillatib, cholning ko‘zlariga jonsarak tikiladi. Yurak xuruji tufayli jon bergan Nodir cholning tepasida uch kun poylab, uvillaganicha odamlarni chaqiradi. Itning ovozi bo‘rilarning uvlashidan ajrata olgan Erali chavandozning taklifi bilan jo‘rasining jasadi topiladi¹”. Adabiyotshunos olim Y.Solijon adib qissalarini kuzatib, yuqoridagi xulosalarni aytadi. Yozuvchining “Mung” hikoyasidan olingan parchalarda ham qissalaridagi kabi holatlarni ko‘ramiz. “Shundan keyin chol o‘ziga keladi. Ha, degan ma’noda itiga qaraydi. Bunga javoban it bot g‘ingshiydi. “Ketdi, – deydi chol xirqirab. – Arvohdayin kunimni xiralatib, xunuklatib ketdi.” It ko‘zlarini javdiratib, ingillaydi².

It mungli nolaga toqat qilolmay, eshik va deraza o‘rtasida zir yugurarkan, oxiri ko‘mak istab, o‘rik tagida mudrayotgan eshak yoniga bord³.

Chol oqshomlari chordana qurib o‘tirishni xush ko‘radigan joyga cho‘nqayib, go‘yo egasini qo‘shig‘ini davom ettirishga ahd qilganday, tumshug‘ini ko‘kka cho‘zganicha, hazin va mungli ovozda kuylashga tushdi.

U tuni bilan uvlab chiqdi⁴.”

Adib hikoyalariga xos bo‘lgan yana bir xususiyat har bir hikoyani tugundan boshlanishida. Bu esa yozuvchining poetik individualligini ko‘rsatadi. “Chol, odamlarning ta‘biri bilan aytganda, haftada uch-to‘rt bor ayniydi⁵”, – deb boshlanadi: “Mung” hikoyasi. Hikoyani 5 qismga bo‘lish mumkin. Har bir qism o‘ziga xos tugundan boshlanadi va yechimiga ega.

Tugun

Chol, odamlarning ta‘biri bilan aytganda, haftada uch-to‘rt bor ayniydi

Yechim

Odamlar uchun u unutilgan buyumdek bir gap, uni chiqsagina eslashadi, qolgan payt ishlari ham yo‘q

¹ Солижонов Й. Жозиба сеҳри. Ёшлик журнали 2010. Б.9.

² Норқобилов Н. “Танланган асарлар” I жинд. 148-бет.

³ Ўша манба Б.160.

⁴ Ўша манба Б.161.

⁵ Ўша манба Б.146.

U umri bino bo'lib, ajalni sel timsolida ko'rmagan edi.

Ko'pchilkka kulfat keltirgan ofat umumiy bo'lsa-da, qayg'u baribir bo'lak edi. Suyganidan judo bo'lgan er o'shanda aqlidan ayrilay degan.

Agar u to'satdan hayotiga kirib kelmaganida, ilg'amgin nolalar bilan qolgan umrini tinchgina adoqlagan bo'lardi.

Ammo o'zini aldayotganligini ichdan his qilib turarkan, etib turarkan, bu hovliga kirganiga pushaymon edi, shartta iziga qayrilib ketgisi keldi. Biroq endi buning iloji yo'q edi.

U juvonni emas, uning Xayrinisoga o'xshash ruxsoriga oshiq bo'lib qolgandi.

Ammo hamma iltijolari zoe ketgan, juvonning lutfida Xayrinisoga yaqinlik bor edi.

U o'zi sezmaganda holda juvon uchun yashay boshladi

Odamlar cholning o'limidan tongda ogoh bo'ldilar. Cholning o'ng panjasida ko'ylak parchasi, chehrasida esa go'daklarga xos ma'sum tabassum qotib qolgandi.

“U umri bino bo'lib, ajalni sel timsolida ko'rmagan edi.” – deb boshlanadigan qismi alohida yaxlid hikoya bo'la oladi. Bu qismda kutilmaganda selning kelishi va chol bilan Xayrinisoni sel oqizib ketishi tasvirlanadi.

Bola yoki chol singari qahramonlar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmaydigandek ko'rinsa-da, adib ular nigohi orqali hayot voqeligini teran kuzatadi. Ayni shunday ijtimoiy hayot voqeligini kuzatish vazifasini yozuvchi *it, daraxt, yumronqoziq* obrazlariga mohirlik bilan yuklaydiki, o'quvchi ko'z o'ngida real turmush voqealari gavdalanadi. Ushbu obrazlarning o'ziga xos nigohi orqali yozuvchi insonlarni kuzatadi. Bu fikrning isbotini *“Qizcha”* hikoyasi misolida oladigan bo'lsak, hikoyada ikki muhim nigoh borligi ko'rinadi. Biri qizcha nigohi bo'lsa, ikkinchisi it nigohi. Hikoyada muallif oddiy, kundalik turmushda ro'y beradigan oilaviy hayotni, ijtimoiy turmush voqeligini tasvirlagan bo'lsa-da, bu voqelikka yangicha uslub va yechim bilan yondashganligi ko'zga tashlanadi. Hikoyada bola nigohi orqali ota va onaning xarakteri, oila hayoti kuzatilsa, muallif uslubiga xos bo'lgan yana bir muhim jihat ko'zga tashlanadi. Bu ota-ona bilan birga qizchaning ayanchli holatini kuzatayotgan it nigohi. Qizcha har kuni uyida bo'ladigan janjaldan qochib yomg'irli kunda itning inidan joy topadi.

“Uydagi janjal ancha kech tugadi. Bu paytda yomg'ir tinib, hovli sahnida katta xalqob yuzida so'nggi tomchilar doiracha yasar, nam havoda tutun isi anqirdi. Qizcha esa janjal bosilganidan bexabar, itning pinjida shirin tushlar ko'rib yotardi. Jonivor bo'lsa, qimirlashdan hayiqib, qizoloqning yuzidan ko'z uzmaganda ko'yi, dam-badam uning yuzi va qo'lini astagina yalab-yalab qo'yardi”.

Hikoyada it nigohi juda muhim vazifa bajaradi. U oilaning asl holatini to'la ochib beradi. Tongda qizcha it inidan topilgandan keyin ham it uni ota-onasiga bergisi kelmaydi.

“Bu vaqtda tor inda o'zi istagan osoyishtalikni topgan qizaloq to'polondan bexabar tinchgina uxlab yotardi. Faqat itgina bezovta edi. Qizaloqni bag'ridan tortib

¹ Норқобилов Н. Бўрон қўпган кун. Т.: Шарқ-2007. Б.284.

*olishlarini payqab, notinchlansa-da, lekin uni qo'zg'ab yuborishdan cho'chib, qimirlamaslikka urinardi. U g'ujanak bo'lib yotgan qizaloqning muzdek yanog'ini issiq tili bilan ohista yalakan, iniga qiziqsinib mo'ralagan sharpani sezib, g'azabnok irilladi. Biroq kimsa qizchani ilg'ashga ulgurgandi*¹.

Aytish kerakki, bu kuzatuvchanlik nigohi ba'zan, qahramonga, ba'zan roviyga o'tadi va aytilganidek, asar personajlarini kuzatadi. Bu nigohning roviyga o'tishida ham o'ziga xoslik bor. Roviynigohi ko'p hollarda qahramonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini emas, aksincha, unda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatadi. Ya'ni, roviynigohi orqali kuzatilgan qahramonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi uni o'rab turgan muhitdagi insonlarnikidan ancha baland bo'ladi. Bu holatni biz adibning boshqa hikoyalarda muallim, rassom, shoir obrazlari orqali ham ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asosan qahramonlarning ruhiyatida, ba'zan e'tiqodida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatadi. "Tugatilmagan surat", "Quvonchli kun" hikoyalarining qahramonlari muhit bilan konfliktga kirishadi. Ular ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ayni shu o'zgarishlar asnosida ularda alam, nafrat kabi o'zlari kutmagan his-tuyg'ular paydo bo'ladi. Bunda yozuvchi biqiq, o'zgarmas muhitni yoki odamlarni sabab qilib ko'rsatadi. Ayni shu muhitda qahramon insoniylik qiyofasidan, toza hislaridan butunlay mahrum bo'ladi. Ba'zi qahramonlar butunlay shu muhitda qolib ketadi, ba'zilari esa muhitning chin ma'nodagi qurboniga aylanadi. Boshqa bir tomondan esa qahramonlar muhit yoki personaj ta'sirida holati, ruhiyatida jiddiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi ularning chin insonga aylanishiga sabab bo'ladi. Bu jihat adibning ko'plab asarlariga xos xususiyat hisoblanadi.

"Buloq" va "Keksa tut" hikoyalarida qo'shnilar, "Yong'in"da esa butun qishloq qahramon nigohi orqali ko'rinadi. Bu kuzatish insonning butun illatlarini ochib berishga xizmat qilishi yozuvchining o'ziga xos uslubi.

"Do'ngkalla" hikoyasida dala sichqoni Do'ngkallaning kuzatishlari falsafiylik kasb etsa, yumronqoziqlar sardori Tirtiqnining nigohi orqali ulfatlarni, ayniqsa, Botirning qiyofasini ochib beradi. Do'ngkallaning bolaga ta'siri katta, bolaning esa bobosiga ta'siri bor. Qay bir jihatdan Do'ngkalla bola orqali boboni tarbiya qiladi.

"– Bundan keyin u sizning qovun-tarvuzingizga tegmaydi, – dedi bola xaltani chayla kunjagiga joylashtirib.

– Dorilanganmi?

– Yo'q.

– Unda qanaqasiga?..

– Men... u bilan kelishib oldim.

Normat qora, hazil qilayaptimi bu, degan ma'noda u tomon o'girildi. Yo'q, kamgap nevara, odatdagidek, juda jiddiy edi. U saldan so'ng cho'ntagiga bir chimdim don

¹ Норқобилов Н. Бўрон қўпган кун. Т.: Шарқ-2007. Б.285.

solgancha, Do'ngkalla hududi tomon jildi. Normat qora esa bolakayning izidan hayron termulib qoldi¹."

Adibning ba'zi hikoyalarida qahramonning personajlarga ta'siri ko'zga tashlanadi. Bu ta'sir ma'lum ma'noda qahramon orqali ma'nan qashshoq personajlarni tarbiya qilish bilan birga o'z navbatida o'quvchiga ham yuqadi. Ayrim hikoyalar yakunida qahramonning muayyan personajga ta'sir o'tkazib uni tarbiyalashi muallifning o'ziga xos uslubiga aylangan.

Adibning *"Yozning birinchi kuni"* hikoyasini o'quvchiga Sharqning hikoyat ichida hikoyatlarni jo qilgan asarlarini yodga oladi. Bunday asarlarga misol qilib, hikoyat ichida hikoyat shaklida qurilgan boblarni va ko'plab murakkab syujet chiziqlarini o'zida jamlagan *"Kalila va Dimna"* asarini aytish mumkin. *"Kalila va Dimna"* bilan *"Ming bir kecha"* asarlari kompozitsion qurilishi jihatidan... bir qarashda novella (hikoyat)lar to'plamiga o'xshab tuyulsa ham, turkum yoki to'plamga xos mavzu xilma-xilligi, mazmun tarqoqligi, fabulaviy noizchilikdan yiroq, bir butun kompozitsiyaga ega.²".

"Yozning birinchi kuni" hikoyasi syujeti parallel ravishda kechadi. Hikoyani qurilishi jihatidan shartli nom ostida uchga bo'lish mumkin.

- a) *Yumronqoziqlar to'dasi sardori – Tirtiq;*
- b) *Ulfatlar;*
- c) *Ikki eshak* haqidagi qism.

Yozuvchi jonivorlar haqida *"Uloqcha"*, *"Qashqa"*, *"O'g'ri"* hikoyalari, *"Oqbo'yin"*, *"Paxmoq"*, *"Ajal chorlagan kun"* qissalari yozgan bo'lib, shundan kelib chiqib hikoyaning *Ikki eshak* qismini yaxlit hikoya deb olish mumkin.

Hikoyada go'yo sahnani kuzatayotgan tomoshabin, sahnani ham tomoshabinni ham ziyraklik bilan kuzatayotgan rejissiyor nigohi kabi muayyan nuqtada tutashadigan, jamlanadigan bir nechta nigohni kuzatish mumkin. Bularga mashina zarbidan yiqilgan juftini yonida turgan eshak, eshaklarni kuzatayotgan ulfatlar, har ikki voqelikdan tashqari, atrofni kuzatayotgan Tirtiq, asar yakunida faollashadigan Bo'rivoy va bularning hammasini jamlagan muallif nigohini aytish mumkin.

Hikoyada real voqelikni ifodalashda odamlar va jonivorlar nigohi parallel qo'yiladiki, bu ham yozuvchining individualligini bildiradi. Bu esa ko'pincha falsafiylikka ega bo'ladi. Yozuvchi nuqtai nazariga ko'ra odamlarning qilmishlari hayvondan tuban, vahshiyroq degan ma'noni beradi. Fojea yuz berganda unga odam va jonivorning munosabatini quyidagi parchadan ko'rish mumkin.

"Shunga ko'ra, yelgir ulov zarbidan koptokday dumalab tushgan qora moda yeshakning ayanchli holatidan emas, voqeaga yigitlar bo'g'zidan beixtiyor tarzda, bir paytda ko'chgan kuchli "oh"dan yuragi qinidan chiqib ketgandi. U qo'rquvdan

¹ Норқобилов Н. Четдаги одам.Т.: Чўлпон, -2016. Б.183.

² Жўракулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. Монография. Т.: "Тамаддун", 2021, Б.42-43.

iniga sho'ng'ir ekan, sho'ng'ish asnosida, tabiiy yoriqqa ko'ra, jamoadoshlarini ham qochishga undab ulgurgan edi. Ma'lum muddat ini to'rida kuymalanib, o'zini o'nglab olgach, quruq va salqin bu boshpanasida har qanday xavf-xatardan xoli ekanligiga qattiq ishonch hosil qilganday bir dam huq-huqlab turgach yakunida ketma-ket yengilgina chiyillashni unutmagan holda tishga yo'nalganda, qirqdan hatlagan bo'lsa-da, haligacha qaynab quyilmagan, bu yetmaganidek, kayfi taroq kezlari ham rulga o'tirishdan qaytmaydigan Sodiq o'pka boshqaruvidagi temir ulov sayxonlik g'arbidagi qiyalikka tirmashib, jar chetidagi yassi do'nglik ortida ko'zdan g'oyib bo'lgan, yigitlar go'yo hech qanday noxush hodisa ro'y bermagandek, o'sha-o'sha chodir bilan ovora edilar. Qora eshakning jonsiz jasaki tepasida esa yag'iri oqish tuklar bilan "bezalgan" kulbet hangi, erkalanmay turaqol endi, deganday uzun quloqlarini goh dikkaytirib, goh shalpaytirib turar edi¹."

Yuqoridagi epizod kabi hikoyaning boshqa qismlarini ham shunday qo'shma gaplardan iborat bo'lgan bayon uslubi birlashtirib tutib turadi.

Xullas Normurod Norqobilov hikoyalarida individual voqelikni tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bolalar obrazini tasvirlashda ko'p hollarda ularni otionalari, atrofidagi odamlar bilan qarshi qo'yadi. Yuqorida sanalgan asarlardan tashqari "Kapalak", "Baliq ovi" hikoyalarida ayni holni ko'rish mumkin. Shuningdek, adib bolalar obrazini tasvirlashda ularning yetimligiga e'tibor qaratsa, chol obrazida esa ularni yolg'izlikdagi iztiroblariga urg'u beradi. Chol va bola obrazlariga qo'shib, tabiatdagi biron bir detal yoki unurning obraz darajasiga chiqishi ham yozuvchi hikoyalariga xos jihat.

Jonivorlar obrazini yaratishda yozuvchining individualgi voqelikni insonlar va hayvonlar nigohi bilan parallel tarzda ifoda etishda ko'rinadi.

Adabiyotlar

Dovurova Sh. Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi. Fil.fan. nom. Diss...T.: 2004. B.5.

Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: "Fan", 2006. – B.14.

Jo'raqulov U. Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi. Monografiya. T.: "Tamaddun", 2021, B.42-43.

Norqobilov N. "Yoshlik" jurnali. 2010 yil 7-son.

Norqobilov N. Unutilgan qo'shiq "Yosh gvardiya" 1990 B. 53.

Osha. "Ijod ichki kuchlarni ozod qilish" 2021 yil 8-son.

Solijonov Y. Joziba sehri. Yoshlik jurnali 2010. B.9.

¹ Норқобилов Н. "Танланган асарлар" I жилд. Б.386.